

## ERKIN VOHIDOVNING “RUHLAR ISYONI” DOSTONIDA MUHABBAT VA VAFO MAVZUSI

**Ahmedov Hoshim Hakimovich**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti  
universiteti o‘qituvchisi, filologiyafanlari nomzodi, dotsent  
[ahmedov\\_60@list.ru](mailto:ahmedov_60@list.ru)

**Kenjayeva Nilufar Eshonqul qizi**

ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti, 407-talabasi

### Annotation.

This article discusses the epic poem "Rebellion of Spirits" by the People's Poet of Uzbekistan Erkin Vahidov and its coverage of the image of a woman, her psyche, personality and artistic qualities of the women of the East.

### Key words:

Uzbek literature, Erkin Vahidov, The Rebellion of Spirits, artistic features

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni va undagi ayol obrazining yoritilishi, uning ruhiyati, shaxsiyati va Sharq ayollariga xos bo‘lgan fazilatlarini badiiy jihatlarini haqida fikr yuritiladi.

### Kalit so‘zlar:

O‘zbek adabiyoti, Erkin Vohidov, “Ruhlar isyoni” dostoni, badiiy xususiyatlari

Ozod Sharafiddinov yozadiki: “Erkin Vohidov she‘rlarida ma‘nodor umumlashmalar, teran falsafiylikka intilish kuchaygan. Shoir nima to‘g‘risida yozmasin, jahoniy miqyoslarda fikrlaydi, hayotga umumbashariy nuqtai nazardan qaraydi” [1. Ozod Sharafiddinov, “Adabiyot – hayot darsligi”, 85-bet]. Bilamizki, shoir ijodining salmoqli va asosiy qismini inson ruhiyatidagi eng ilg‘ab bo‘lmas nozik masalalarining targ‘ibi va manzarasining ta‘sirchan aks ettirillishi o‘rin olgan. Inson shaxsini ko‘proq komillikka targ‘ib qilish ham shoir ijodidagi asosiy maqsad bo‘lib o‘rin olgan. Shoir ijodi nafaqat milliy qadriyatlarimiz haqida, balki boshqa millatlarning qadriyatlari borasida ham o‘z fikr- mulohazalarini va tuyg‘ularini ham tarannum eta oladigan shoir hisoblanadi. Masalan, adib ijodidagi eng sara asarlaridan biri **“Ruhlar isyoni”** [2. Erkin Vohidov, “Ruhlar isyoni” T. 1980] dostonida keltirilgan bir qancha hikoyatlarda ham boshqa millat vakillarining eng sara tuyg‘ularini olib sanash va sharq an‘anasi ostida jamlash, shuningdek, salbiy jihatlarini ham tanqid qilish orqali birdamlik va oqibatlilikka chorlashi shoir ijodining ajralib turadigan xislatlaridan biri hisoblanadi.

Shoirning ushbu asari Nazrul Islom (hind shoiri)ga bag‘ishangan bo‘lsa-da, asarning ichidagi asosiy mazmun hind xalqining ozodlik, erk va mustaqillik uchun kurashi hamda bu og‘ir jarayondagi insonlar ruhiyatidagi o‘zgarishlar va murakkabliklar tilga olinadi. Odatda ulug‘ iste‘dodlar ijodi bir qancha vaqtgacha jamiyatning didini belgilovchi mezon bo‘lib qoladi. [3. Erkin Vohidov, “Shoiru she‘ru shuur”, 14-bet]. Asarning bosh g‘oyasi shunday jaranglaydi:

*So‘yla inson,*

*So‘yla qadding ko‘tarib baland,*

*Yuksaklikda sening qadring Himolay monand.* [4. “Ruhlar isyoni”, 185-bet]

“Fidoyillik to‘g‘risidagi” rivoyat qismida hind ayollari va ularning taqdirini hal qiladigan hind qadriyatlari haqida asosiy mazmunda so‘z boradi. Nafaqat hind ayollari, balki sharq ayollariga xos bo‘lgan qadriyat bilan she‘r boshlanadi. **“Ayol dini- fidoyilik – deganlar”** jumlasining o‘ziyoq asar mohiyatini ochib beradi. Bizningcha, mana jumla butun dostoniga xos asosiy fikrning- g‘oyaning biri.

“Vafodek muqaddas, pokiza tuyg‘uning qimmati hech zamonda kam bo‘lgan emas. [Erkin Vohidov, “Shoiru she’ru shuur, 78-bet].

Asar davomida qadimda hind erkaklarining vafotidan so‘ng ularning ayollarini ham birga ko‘mishlari va bunga qarshi chiqqan yagona erkakni ham tavqi la‘nat qilganliklari va shoirning aynan o‘sha erkakning qabriga ehtirom ko‘rsatishi shuningdek, ayolning hayotdagi o‘rinlarini ham mohirona ochib berishilishi tasvirlangan.

*Ayol uchun dunyoda  
Eri bilan ko‘milmakdan  
Soadat yo‘q ziyoda (190-bet)*

Muqaddas qadriyatlar uchun fidoyilik ulug‘lanadi, ayni paytda asarning bosh g‘oyasi-leytmotiviga urg‘u beriladi:

*Bu dunyoda nohaqlikka  
Ko‘nmaganlar bor bo‘lsin.  
Zo‘rlik ko‘rsang,  
Qilma toqat,  
Har boshda bir o‘lim bor  
Fidoyilar umri faqat*

*Bu dunyoda poyindor. (“Ruhlar isyoni”, 191-bet)*

Asardagi har bir qurbonlikdan so‘ng erishilgan g‘alaba shu kunlar uchun fido bo‘lgan insonlarning, erkin ruhiyatining, isyonining samarasi aslida. Sharq ayollariga xos fazilat itoatkorlik, vafo doimo o‘zgacha bir hurmat bilan yoritiladi.

Hind ayollarining sadoqati afsona emas. Hatto Zahiriddin Muhammad Bobur ham vafot etgan hind askari ayolining sadoqatiga lol qolgani “Yulduzli tunlar” romanida tasvirlanadi. [5. Primqul Qodirov, “Yulduzli tunlar”, 470-bet]. Undan tashqari hind adabiyotida sevgi-sadoqat mavzusi ustuvor hamda afsona va rivoyatlar ham ko‘p. Bu jihat uzoq o‘tmishdan, diniy-e‘tiqodiy qadriyatlardan keladi. Xatto bugungi kunda ham dunyo hamjamiyati hind oilasi mustahkamligini e‘tirof etmoqda. Ba‘zi misollar: ma‘lumotlarga qaraganda, oilada ajralishlar soni Ukrainada – 55 foiz, Belarusda- 62, Angliyada – 42, AQShda – 45, Rossiyada – 65 va Hindistonda – 1,1 foiz ekan [6.present5.com]. Shundan ham bilsa bo‘ladiki, vafo, sevgi, sadoqat, oila tushunchalari hindlarda azaldan muqaddas qadriyat hisoblanadi. Bu yerda “Muhabbat – buyuk o‘qituvchi”. [7. Molyer, 108-bet].

*Ayol zoti kamon bo‘lar,  
Erkak zoti –o‘q,  
O‘q kamonga ilinadi,  
Boshqa iloj yo‘q. (“Ruhlar isyoni”, 188-bet)*

“Ayol matonati kishini ham hayratga soladi, ham achinish, ham iftixor tuyg‘usini junbushga keltiradi – shuning o‘ziyoq ayol qismati chuqur hayotiy ma‘nodorlik bilan yo‘g‘rilganligini ta‘kidlaydi”. [8. Umarali Normatov, “Ayolni tushunish”, 179-bet]. Olim Abdug‘afur Rasulovning e‘tirof etishicha, Nuriddin Shukurov dostonni yoddan aytib bergan ekan [9. A. Rasulov. “Badiiylik – bezavol yangilik”, 240-bet]. “Erkin Vohidov she‘rlari qalbgaga darhol jo bo‘ladi, o‘zlashadi-qoladi. O‘qituvchilik tajribamdan bilaman, tolibi ilmga “She‘r ayting”-desangiz avval hayron bo‘lib turadi, Erkin Vohidov asarining ilk misrasini aytishingiz bilan butun auditoriya o‘sha she‘rni, g‘azalni o‘qib ketadi.” (o‘sha manba, 241-bet)

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov doston orqali quyidagicha fikr- g‘oyalarni ilgari surgan:

1. Doston yozilgan – XX asrning saksoninchi yillari ijtimoiy tuzum tanazzulining so‘nggi avj bosqichi edi. Bu jihat – mustaqil, erkin fikr aytish istagini **zaruratga aylantirgan**.
2. Shoir erkin, mustaqil fikrning ta‘qib qilinishi, mavjud holatni ochiq ta‘riflab, tavsiflab, ifodalab bo‘lmasligini anglagan holda **“kosa tagida nimkosa”** usulida Abdurauf Fitrat usulidan foydalangan (buni deyarli barcha adabiyotshunoslar e‘tirof etadi)
3. Dostondagi barcha asosiy g‘oyalarga yondosh ishq-muhabbat, vafo-sadoqat mavzusi ham tilga olinadi. Bundan ko‘zlangan maqsad mangu mavzuga qaytib, hind ayollari sadoqatini ta‘riflash orqali **oila qadriyatlariga urg‘u bergan**.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шарафиддинов О. Адабиёт – ҳаёт дарслиги. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981. – 96 б.
2. Воҳидов Э. “Рухлар исёни”. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1980. – 96 б.
3. Воҳидов Э. Шоиру шеър шуур. Адабий ўйлар. Т.: “Ёш гвардия” нашриёти. 1987. – 224 бет.
4. Воҳидов Э. Сайланма. Иккинчи жилд. Шеър дунёси. Т.: “ШАРҚ”. 2001. – 352 б.
5. Қодиров П. “Юлдузли тунлар” (“Бобур”). Т.: ШАРҚ. 2002. – 544 б.
6. [www.present5.com](http://www.present5.com). vk.com>wall-81527592\_18649
7. Жаҳон адабиёти дурдоналари. Мольер. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2015. – 612 б.
8. Норматов У. Ижод сеҳри. Ижод сеҳри. Т.: «Шарқ», 2007. — 352 б.
9. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. Т.: «Шарқ», 2007. — 336 б.